

Sun'iy intellekt orqali ta'lim tizimini baholash

**Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari
Universiteti Samarqand Filiali Kompyuter Injineriingi fakulteti**

Hoshimova Nilufar Eshmurod qizi

Toshpo'lotova Dilfo'za Komiljon qizi

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolada sun'iy intellekt nimaligi va uning rivojlanish jarayoni hamda ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkinligi to'g'risida mulohazalar olib borilgan. Undan tashqari sun'iy intellekt atamasi va uning kirib kelish tarixi hakida ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekistonda qaysi sohalarda bu dasturni ishlatish mumkinligi va uning ahamiyati hakida misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellect, Robot, Ongli robot, Mashina, IT sohasi, SpaceX, Meteorologik vaziyat, Alexa, Cortana, COVID-19, Devid Stautmayer

Sun'iy intellekt (AI) orqali ta'lim tizimlarini baholash tez rivojlanayotgan sohadir. Sun'iy intellektdan o'quvchilar faoliyati, o'qituvchilar samaradorligi va o'quv dasturlarini loyihalash kabi ta'lim tizimlarining turli jihatlarini baholash uchun foydalanish mumkin. Ta'limni baholashda sun'iy intellektdan foydalanishning bir usuli katta ma'lumotlar to'plamini tahlil qilishdir. Mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalangan holda, AI tizimlari o'quvchilarning ishlash ma'lumotlaridagi naqsh va tendentsiyalarni aniqlay oladi, bu esa o'qituvchilarga o'quv rejasi va ko'rsatmalar haqida ko'proq ma'lumotli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. AIdan o'qitish usullari va strategiyalarining samaradorligini baholash uchun ham foydalanish mumkin. Masalan, AI tizimi ma'lum bir o'qituvchi qo'shimcha yordam yoki treningga muhtoj bo'lishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlash uchun sinfdagi o'qitishning video yozuvlarini tahlil qilishi mumkin. Ta'limni baholashda sun'iy intellekt qo'llaniladigan yana bir soha - bu individual talabalar uchun shaxsiylashtirilgan o'quv rejalarini ishlab chiqish. Har bir talabaning kuchli va zaif tomonlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, AI tizimi yanada samaraliroq va qiziqarli bo'lgan maxsus moslashtirilgan o'quv tajribalarini yaratishi mumkin. Umuman olganda, ta'limni baholashda sun'iy intellektdan foydalanish ta'limga yondashuvimizni tubdan o'zgartirishi mumkin. So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Aniq maqsad va ko'rsatkichlar belgilab berilgan uzoq muddatli strategiyalar qabul qilinib, izchillik bilan hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi hamda sun'iy intellekt

texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilab berildi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi, YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda joriy yilning 27-avgust kunida xorijiy mutaxassislari ishtirokida «Ta'lim sohasida sun'iy intellektdan foydalanish» mavzusidagi xalqaro anjuman o'tkazildi. Anjumanni o'tkazishdan maqsad, hozirgi kunda ta'lim sohasiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilinishi, buning yutuqlari va istiqbollari muhokama qilish. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish yuzasidan Hukumatimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar bo'yicha Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 38,9 mlrd. so'm bo'lgan, davomiyligi 2021–2024 yillarga mo'ljallangan jami 24 ta amaliy, innovatsion, fundamental va xalqaro loyiha bajarilmoqda. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim yo'nalishi ochildi. Sun'iy intellekt sohasida tayanch doktorantura va stajyor-tadqiqotchilikka jami 33 ta maqsadli kvotalar ajratildi. Shundan, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt ixtisosligi bo'yicha 19 ta tayanch doktoranturaga, 14 ta stajyor-tadqiqotchilikka maqsadli kvotalar tashkil etadi. Joriy yilning oktyabr oyida bo'lib o'tdagi "InnoWeek.uz" innovatsion g'oyalar haftaligi doirasida tashkil etiladigan "Urban.Tech Uzbekistan" hakaton musobaqasida sun'iy intellektni qo'llashga bo'yicha loyihalari kiritilishi ham rejalashtirilgan. Shuningdek, Hukumatning sun'iy intellektga tayyorgarlik indeksida (Government Artificial Intelligence Readiness Index) respublika pozitsiyasini yaxshilash choralari ko'rish yuzasidan o'rganilgan xorijiy tajriba asosida sun'iy intellektga tayyorgarlik indeksida o'rnini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan.

ADABIYOTLAR:

1. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical Simulation of Nonlinear Vibrations of Discrete Mass with Harmonic Force Perturbation. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10 (4), 71-75

2. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79).

3. Akhmedov, B. A., Majidov, J. M., Narimbetova, Z. A., Kuralov, Yu. A. (2020). Active, interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79).

